

Fattoyeva Nilufar Faxriddinovna,
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedراسي
Arxeologiya yo‘nalishi magistranti

BUXORO SOPOL SAN‘ATIDA RANG VA NAQSH UYG‘UNLIGI (IX–XII asrlar)

Annotasiya. Mazkur maqolada IX–XII asrlarda Buxoro vohasida yaratilgan sirlangan sopol buyumlarning badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor rang va naqsh uyg‘unligiga, ularning kompozitsion tuzilishi hamda estetik ahamiyatiga qaratilgan. Tadqiqotda geometrik, o‘simliksimon va epigrafik bezak turlari o‘rganilib, ularning sopol buyumlar bezagidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, sirlash texnologiyasi va rang berish usullarining badiiy ifodaga ta‘siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro vohasi, sirlangan sopol buyumlar, sopol san‘ati, bezak turlari, ornamentika, rang uyg‘unligi, geometrik naqshlar, o‘simliksimon bezaklar, epigrafik naqshlar, IX–XII asrlar.

ГАРМОНИЯ ЦВЕТА И ОРНАМЕНТА В КЕРАМИЧЕСКОМ ИСКУССТВЕ БУХАРЫ (IX–XII ВВ)

Аннотация. В данной статье рассматриваются художественные особенности глазурованных керамических изделий Бухарского оазиса IX–XII веков. Особое внимание уделяется гармонии цвета и орнамента, их композиционному построению и символическому значению. Анализируются основные виды декоративных мотивов, включая геометрические, растительные и эпиграфические узоры, а также их роль в формировании художественного облика изделий. В работе затрагиваются технологические аспекты глазурования и колористики, способствовавшие разнообразию художественных решений.

Ключевые слова: Бухарский оазис, глазурованная керамика, керамическое искусство, виды декора, орнаментика, гармония цвета, геометрические узоры, растительные мотивы, эпиграфические орнаменты, IX–XII века.

THE HARMONY OF COLOR AND ORNAMENT IN THE CERAMIC ART OF BUKHARA (9TH–12TH CENTURIES)

Abstract. This article examines the artistic features of glazed ceramic wares produced in the Bukhara oasis during the 9th–12th centuries. Special attention is given to the harmony of color and ornament, as well as their compositional and symbolic significance. The study analyzes the main types of decorative motifs, including geometric, vegetal, and epigraphic patterns, and highlights their role in shaping the aesthetic appearance of ceramic objects. The paper also considers the technological aspects of glazing and coloring, which contributed to the richness and diversity of artistic expression. Based on comparative analysis, the author identifies distinctive regional characteristics and traces their development within the broader context of Central Asian ceramic traditions.

Keywords: Bukhara oasis, glazed ceramics, ceramic art, decorative types, ornamentation, color harmony, geometric patterns, vegetal motifs, epigraphic designs, 9th–12th centuries.

Kirish. X–XII asrlar Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro vohasi tarixida madaniy va badiiy taraqqiyotning yuksak bosqichi hisoblanadi. Bu davrda Somoniylar va Qoraxoniylar hukmronligi ostida hunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik san‘ati sezilarli darajada rivojlandi. Buxoro vohasi

o'zining sirlangan sopol buyumlari, rang-barang bezaklari va mukammal ishlanishi bilan mintaqada alohida o'rin egallaydi.

Sopol buyumlar nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki o'z davrining estetik qarashlari, diniy tasavvurlari va ijtimoiy muhitini aks ettiruvchi muhim madaniy manba sifatida ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, ularning bezak tizimida rang va naqsh uyg'unligi alohida o'rin tutadi. Geometrik shakllar, o'simliksimon motivlar va epigrafik yozuvlar o'zaro uyg'unlashib, betakror badiiy kompozitsiyalarni yuzaga keltirgan.

Mazkur maqolaning maqsadi IX–XII asrlarga oid Buxoro vohasi sirlangan sopol buyumlarida rang va naqsh uyg'unligini tahlil qilish, bezak turlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda ularning badiiy va tarixiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida sopol buyumlarning ornamentikasi, rang tasnifi va kompozitsion xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganiladi.

Metodlari: Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tipologik metodlardan foydalanildi. Sopol buyumlar bezaklari geometrik, o'simliksimon va epigrafik turlarga ajratilib o'rganildi. Shuningdek, san'atshunoslik tahlili orqali rang va naqsh uyg'unligi hamda ularning kompozitsion xususiyatlari yoritildi.

Tadqiqot natijalari: X–XII asrlarda Buxoro vohasida ishlab chiqarilgan sirlangan sopol buyumlarning badiiy qiymati, avvalo, ularning bezak tizimi va kompozitsion tuzilishida namoyon bo'ladi. Sir qatlamining yaltiroqligi va rang imkoniyatlari ustalarga murakkab va estetik jihatdan mukammal bezak kompozitsiyalarini yaratish imkonini bergan. Bu davrda bezak faqat tashqi ko'rinish elementi emas, balki ma'naviy-estetik qarashlar, diniy tamoyillar va madaniy muhitning ifodasi sifatida ham namoyon bo'lgan.

Sirlangan sopol buyumlarning bezak turlari shartli ravishda quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi: o'simliksimon naqshlar, geometrik naqshlar, zoomorfik tasvirlar, antropomorfik tasvirlar, epigrafik bezaklar shular jumlasidandir.

O'simliksimon bezaklar IX–XII asr sopollarida eng keng tarqalgan ornament turidir. Bu naqshlar islomiy san'atda ramziy va estetik ahamiyatga ega bo'lib, ko'pincha stilizatsiyalangan barg, gul, novda va shox, o'simlik tasvirlaridan iborat bo'ladi. Arabeska tipidagi chirmashgan novdalar kompozitsiyaning markaziy yoki chekka qismlarida joylashadi. Somoniylar davriga oid buyumlarda o'simliksimon naqshlar ko'proq soddalashtirilgan, chiziqli va ritmik takrorlanuvchi shaklda bo'ladi. Qoraxoniylar davrida esa bezak elementlari murakkablashib, kompozitsiyada harakat va dinamiklik kuchayadi. O'simliksimon chizmalar bu davrda keng qo'llanilgan. Asosan sopol buyumlarning lab va chekka qismida ularni ko'proq uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari meva, anor donalari naqshi alohida ahamiyatga ega. Anor qadimdan Sharq va Markaziy Osiyo san'atida juda ham boy ramziy ma'noga ega. U nafaqat meva balki, chuqur falsafiy va madaniy timsoldir. Anorning ichida juda ko'p donalari bo'ladi. Shu sababli u boylik, rizq, serhosillik ramzi hisoblanadi. Donalari ko'p bo'lsa ham, bitta qobiq ichida joylashgan. Bu esa birlik va hamjihatlik timsolidir. Islom madaniyatida anor jannat ne'matlaridan biri sifatida tilga olinadi, shuning uchun u poklik va muqaddaslik ramzi hamdir. Bundan tashqari uzum novdalari barglari aks etgan buyumlar ham mo'l-ko'lchilik, to'kinlik kabi ma'nolarni bildiradi. Ayniqsa bu bezak turlari Buxoro va Samarqand kulolchiligida ko'proq uchraydi (*1-rasmga qarang*).

Geometrik bezaklar sirlangan sopol bezak tizimining asosiy komponentlaridan biridir. Ko'pincha markaziy medalon atrofida simmetrik tarzda joylashtirilgan naqshlar uchraydi. Bu kabi naqshlar nafaqat estetik balki chuqur falsafiy mazmunga ega. Masalan abadiylik uzluksiz chiziqlar orqali ifodalanadi. Geometrik naqshlarning ham o'ziga xos hududiy ko'rinishlari mavjud. Samarqand murakkab markaziy kompozitsiyalar, Buxoro sodda ammo ritmik naqshlar, Nishopur ko'p va zich qatlamli bezaklari bilan ajralib turadi. Masalan, Buxoro Ark muzeyining arxeologiya fondida saqlanayotgan XII asrga oid sopol buyumda markaziy qismda o'zaro kesishuvchi chiziqlardan hosil bo'lgan murakkab geometrik kompozitsiya tasvirlangan. Idish chetlari aylana shakldagi chiziqlar bilan chegaralangan bo'lib, bu markaziy naqshni vizual jihatdan ajratib turadi. Bezakda jigarrang, qora, qizil, yashil va oq ranglardan foydalanilgan. Rang kontrasti sir

qatlarning yaltiroqligi bilan uyg'unlashib, kompozitsiyani yanada ta'sirchan qiladi. (2-rasmga qarang).

Zoomorfik tasvirlar islomiy san'atda cheklangan bo'lsa-da, Movarounnahr sopollarida ayrim hollarda uchraydi. Qush, baliq, kiyik, ot, tuya va boshqa hayvon tasvirlari ko'proq stilizatsiyalangan holda beriladi.¹ O'rta Osiyoning turli hududlarida uchraydigan o'rta asr sopol buyumlari naqshlarida zoomorf tasvirlar, jumladan, baliq tasvirlari anchayin keng tarqalgan.² Sopoldagi hayvon tasvirlari o'z ildizlari bilan qadimgi diniy e'tiqodlar qoldiqlariga borib taqaladi.³ Bu bog'liqlik ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida yetarlicha asosli tarzda qayta tiklangan. Bu kabi bezak turlari Buxoro vohasidan topilgan sopol buyumlarda ham uchraydi.

"Avesto"da suv unsuri va baliqlarga sig'inishga oid ko'plab misollarga duch kelish mumkin⁴. Shu bois Vendidadda tilga olingan "Kara" baliq obrazi ushbu qadimiy tasavvurlarning saqlanib qolgan namunasi bo'lishi ehtimoldan xoli emas⁵. O'rta Osiyo san'atida baliq tasviri "baxt, farovonlik va boylik" timsoli sifatida namoyon bo'lgan⁶. Ushbu guruhga ossuariy (suyak qo'yish qutisi) parchalari, X–XI asrlarga oid sirlangan sopol hamda XII–XIII asrlarga mansub sirsiz sopol buyumlar kiradi. X–XI asr oxiri va boshlariga oid sirlangan sopollar orasida baliq tasviri bilan bezatilgan idishlar diqqatga sazovordir. Ulardan biri – markazida to'rt baliq shaklida hosil qilingan ikki rangli rozeta bilan bezatilgan kosalaridir. Baliqlar orasidagi fon mayda nuqtali naqsh bilan to'ldirilgan gulli tasvirlardan iborat. Kosaning chetida arab yozuvida "al-yumn" (baraka yoki omad) so'zi va marjon tasviridagi tasma joylashgan⁷. Ba'zi boshqa kosalarda o'simliksimon naqshlar ustunlik qiladi. Ularda rozeta barglari va baliq tasvirlari yashil va jigarrang ranglarda ishlangan, lekin ko'z o'rnida ikkita yirik nuqta tasvirlangan. Bir qancha idishlar to'rtbargli monoxrom rozeta bilan bezatilgan bo'lib, ularda ham "al-yumn" yozuvi⁸ saqlanib qolgan. Boshqalarida esa rozetaning barglari soni oltitaga yetib, umumiy naqsh sxemasi o'zgarmagan. Ba'zi sopol buyumlarda rozetalar barglarining o'rtasi oq chiziq bilan ajratilgan bo'lib, ular yaproq shakliga keltirilgan. Bunday naqshlarni baliq va o'simlik unsurlarining uyg'unlashuvi sifatida talqin qilish mumkin. (3-rasmga qarang).

Zoomorfik tasvirlar tushirilgan sopol buyumlar X asr Movarounnahr sopol san'atining muhim yo'nalishi bo'lib, unda qushlarning tasvirlarini ko'plab tarqalgan. Bu tasvirlar ko'pincha ramziy ma'no kasb etgan. Masalan, qush – ruhiy poklik yoki xabar yetkazuvchi timsoli, baliq – baraka va hayot ramzi sifatida talqin qilingan. Qoraxoniylar davrida dasht madaniyati ta'sirida zoomorfik motivlar nisbatan ko'proq uchraydi.

¹ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва, 1969. – С. 301.

² Андреев М.С. Вещие сны, несколько примет и детская игра «Сорока-воровка» среди некоторых народов, главным образом Средней Азии. Изд. Главного Средне-Азиатского музея. Вып. II. – Ташкент, 1923. – С.10-11.

³ Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандской обл. в 1921 г. Изв.ТОРГО. Т. XVII. – Ташкент, 1924. – С. 135-136.

⁴ Авеста, Вендидат. Т. VII. – С. 14-15.

⁵ Снесарев Г.П. Обряд жертвоприношения воде у узбеков Хорезма генетически связанных с древним культом плодородия. МХЭ, в. 4. – Москва, 1960. – С. 198-202.

⁶ Лунина С.Б. Зооморфные сюжеты в керамике со штампованной орнаментацией из гончарной мастерской XII-нач. XIII вв. в квартале керамистов старого Мерва. Тр. ТашГУ, вып. 172. – Ташкент, 1960. – С.83.

⁷ ГМИКИУ г. Самарканд, инв. № А-446-53. – С.53.

⁸ Болшаков О.Г. Исламская керамика Средней Азии IX–XII вв. – М.: Наука, 1973. – С. 45.



1-rasm.Poykent muzeyi.IX-XII asr.



2-rasm. Buxoro Ark muzeyi IX-XII asr.



3-rasm.Buxoro Ark muzeyi. IX-XII asr.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Андреев М.С. Вещие сны, несколько примет и детская игра «Сорока-воровка» среди некоторых народов, главным образом Средней Азии. Изд. Главного Средне - Азиатского музея. Вып. II. – Ташкент, 1923. – С.10-11.
2. Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандской обл. в 1921 г. Изв.ТОРГО. Т. XVII. – Ташкент, 1924. – С. 135-136.
- Авеста, Вендидат. Т. VII. – С. 14-15.
3. Болшаков О.Г. Исламская керамика Средней Азии IX–XII вв. – М.: Наука, 1973. – С. 45.
4. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва, 1969. – С. 301.
5. Снесарев Г.П. Обряд жертвоприношения воде у узбеков Хорезма генетически связанных с древним культом плодородия. МХЭ, в. 4. – Москва, 1960. – С. 198-202.
6. Лунина С.Б. Зооморфные сюжеты в керамике со штампованной орнаментацией из гончарной мастерской XII- нач. XIII вв. в квартале керамистов старого Мерва. Тр. ТашГУ, вып. 172. – Ташкент, 1960. – С.83.
7. ГМИКИУ г. Самарканд, инв. № А-446-53. – С.53.
8. Болшаков О.Г. Исламская керамика Средней Азии IX–XII вв. – М.: Наука, 1973. – С. 45.